

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KUNDUZGU BO'LIM

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO'NALISHI

BADIIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI

**”VAZADAGI GULLAR ” NATYURMORT KOMPOZITSIYASI
REL'EFINI HAYKALTORASHLIKDA BAJARISH USULLARI.**

Malakaviy bitiruv ishi

Bajaruvchi: Mingboyeva N.

Ilmiy rahbar: Izbosarov I.

Malakaviy bitiruv ishi “Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2012 yil 15 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №10)

Kafedra mudiri:

dots.M.Umarov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAK ning 2012 yil “___”iyunidagi majlisida himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma №___).

YaDAK raisi:

A’zolari:

1. _____
2. _____
3. _____

Samarqand 2012

Kunduzgi bo'lim

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi”

“Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi” kafedrası

“Vazadagi gullar” natyurmort kompozitsiyasi rel’efini
haykaltaroshlikda bajarish usullari.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Mingboyeva N.

Ilmiy rahbar:

Izbosarov I.

Samarqand 2012

Mavzu. "Vazadagi gullar" natyurmort" kompozitsiyasi rel'efini haykaltarashlikda bajarish usullari.

Mundarija

Kirish._____

—

I. Bob . Haykaltarohlik asarlarini yaratishning muhim omillari .

1 Haykaltaroshlikni tasviriy san'at sohasida mustaqil janr sifatida rivojlanishi

2. Haykaltaroshlikda tasviriy san'at asarlarining yaratilish shart – sharoitlari va uslublari

II .Bob. Haykaltaroshlikning bo'rtma turida amaliy ish bajarish jarayoni.

1. Rel'ef haykaltaroshlikning mustaqil ko'rinishi. _____

2. Vazadagi gillar natyurmort rel'efining yasash jarayonining borishi

3. Me'morchilik binolarining ichki va tashqi qismlarini rel'ef turlari bilan bezatilish usullari. _____

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. _____

Kirish

Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixining ilk davri qadim zamonlarga borib taqaladi. G'ordagi devoriy rasmlar, tashdan va suyakdan yasalgan statuetkalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor bezaklar hali inson

badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan. Ilk san'at asarlari o'zining takrorlanmas sofligi, yorqin ifodaviy kuchi, hayotdagi bilan shu kungacha badiiy ahamiyatini yo'qatmaganligi hayratlanarlidir.

O'ylaymizki " Tariximiz, madaniyatimizni o'zimiz uchun va butun dunyo uchun" qayta tiklash mustaqil O'zbekiston milliy san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi - degan edi I. Karimov. San'atning paydo bo'lishi va insoniyatning ilk badiiy ijod namunalari ibtidoiy jamoa davriga to'g'ri keladi. Chunki, o'sha davrda jamiyat hayotining ruhiy hamda iqtisodiy asoslari shakllanayotgan edi. Tarixchilar va arxeologlar olib borgan tadqiqotlar san'atning dastlabki yodgorliklari yuqori paleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydi. Bu davr ibtidoiy jamoa tuzumining nisbatan yetilishi, urug'chilikning shakllanishi, matriarxatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Odam o'zining jismoniy sifatlari bilan hozirgisidan hech qanday farq qilmas, so'zlashish, tosh suyak, shox va yog'ochdan nisbatan murakkab qurol yasash, ov bilan shugullanish malakasiga ega edi. Qadimiy qabilalarning bir necha ming yillar davomidagi taraqqiyoti, ko'z qarashlari, qo'l harakatlarini g mayinlashuvi, asosiy va xarakterli holatni ko'rish, his qilish, tabiatdagi xos shakllar uyg'unligi va g'o'zallikni ilg'ash qoliyatini o'stiradi. Tabiat bilan chambarchas bog'liqlik oqibatida odam uni o'rgandi, o'zlashtirdi. Natijada " obraz " tushunchasi vujudga kelib, ular so'zda tasvirda, ohanglarda o'z akini topdi. Atrof muhitdan oylamasdan nusxa ko'chirish emas, balki tabiatni, hayotiy mahnat tajribalarini ijodiy ifodalsh malakasi paydo bo'la bordi. Mehnat insonda atrof muhitning boy va ko'p qirrali jihatlarini ko'rish

qobiliyatini uyg'otdi. Tosh, yog'ochdan ishlangan mehnat quroli bilan tanishish, bo'rtma va yuzaning o'ziga xosliklarini aniq ilg'ash hamda uni qabul qilishga o'rgandilar. San'atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakllana bordi. Memorchilik, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, amaliy bezak san'ati va boshqalar. Ularning barchasi inson manaviy hayotining muhim qismi bo'lib, yuksak badiiy ideallarni, go'zallik haqidagi tushunchalarni ifoda etadi. Bir san'at turi boshqasidan o'zining mazmuni badiiyligi ifodaviy vositalari va uslubi, materiali, obrazli anglash darajasi, his tuyg'ulariga ta'siri va hayotiy ahamiyati bilan farq qiladi. Har bir san'at turi taraqqiyot, tanazzul va tushkunlik davrlarini boshdan kechiradi, va badiiy vositalarni kengaytirish imkoniyatiga ega. Bunga ba'zan boshqa san'at turlarining, shuningdek, fan va texnikaning erishgan yutuqlarini tabiiy o'zlashtirish orqali erishiladi. Haykaltaroshlik - tabiiy 3 o'lchamli, hajmli prinsipga asoslangan tasviriy san'at turi.

Ishning maqsadi:

Haykaltaroshlikda asosan tasvir ob'ekti inson bo'lib, hayvonot olami (animalistik janr), manzara (peyzaj) va natyurmort janri kam uchraydi. Gavdaning kenglikka qo'yilishi, xatti - harakati, holati, nur - soyasini tarashlash orqali shaklni kuchaytirish, materialga ishlov berish va tarashlash, shaklni arxitektonik tashkil qilish, butun jismning tasir kuchi, og'irlik nisbati, mutunosibligini aniqlash - haykaltaroshlikning asosiy tasviriy vazifasi hisoblanadi. Hajmli haykaltaroshlik shakli: Mutunosiblik, ritmik, tomohlar tengligi, atrof muhit va arxitektura bilan uyg'unlikda, real kenglikda amalga oshiriladi. Tasviriy san'atning bu turiga oid mustaqillik yillarida bir qator ajdodlarimizning nomlarini abadiylashtirish maqsadida, Respublikamizning ko'pgina markaziy shaharlarida haykallar o'rnatildi. Jumladan Toshkent shahrida ham Amir Temur xiyobonidagi Buyuk sohibqironga o'rnatilgan haykal, Mirzo Ulug'bek haykali shu kabi bu zotlar uchun Samarqand shahrida ham yodgorliklar o'rnatilganligi fikrimizning isboti bo'ladi.

Ishning gipotezasi:

Bitiruv malakaviy ishimni quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshirdim. Yozma sahifa qismida men haykaltaroshlikning tasviriy san'atdagi o'rnini uning hozirgi kundagi rivoji, haykaltaroshlikning keng tarqalgan turlarini nazariy asoslarini yoritib berdim.

1. Haykaltaroshlikni tasviriy san'at sohasida mustaqil janri sifatida rivojlanishi .
2. Haykaltaroshlikda tasviriy san'at asarlarining yaratilish shart – sharoitlari va uslublari .
3. Rel'ef haykaltaroshlikning mustaqil ko'rinishi.
4. Vazadagi gullar natyurmort rel'efining yasash jarayonining borishi
5. Me'morchilik binolarining ichki va tashqi qismlarini rel'ef turlari bilan bezatilish usullari.

Tadqiqot usuli:

Haykaltaroshlik - bu san'at ko'rinishiga qarab, dumaloq va qavariq (rel'ef) haykallar yaratish turi. Haykaltaroshlik ishlov berish usullari hamda makonda ma'lum hajmga ega bo'lgan detallar , shakllar orqali tasvirlanadi.

Haykaltaroshlikning keng tarqalgan turlaridan biri, loy yoki plastilin bilan ishlanadi.

Haykaltaroshlikda tanlagan xom ashyo uning rangini belgilaydi . Xalq haykaltaroshliklidagina haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Haykaltaroshlik asarlari yaratishda yumshoq moddalar (maxsus loy, mum, plastilin va boshqalar) qattiq moddalar (turli nav toshlar yo'goch va b.) dan kesib, yo'nib yoki o'ymakorlik bilan yaratiladi. Suyuq holatdan qattiq holatga o'tish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar (turli metal, gips, beton va boshqalar) dan kollaj yordamida quyib ishlanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni haykaltaroshlikning qabariq haykallar turida bajardim. Bunda men vazadagi gullar tasvirini tekis panno yuzasiga

kompozitsiya qilingan natyurmort ko'rinishini qag'oz parchalarini kerakli qalinlikda ustma – ust yelimplab qabariq holatga keltirib ishlov berdim.

Tadqiqot ob'ekti:

Haykaltaroshlikda insonning tashqi ko'rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi, asarda kechinmalar hayajon, g'amginlik va boshqalar ham o'z ifodasini topadi. Haykaltarosh mahorati, to'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat asarning ta'sirli bo'lishida muhim o'rin tutadi. Haykaltaroshlik san'atida taviriy san'atning boshqa turlari kabi tabiat ko'rinishlari, narsa va predmetlarning tasviri, asosan inson va hayvonlarning qiyofasi ko'proq tasvirlanadi.

Ilmiyligi va ahamiyati:

Haykaltaroshlik san'ati o'rganish uchun o'quvchi yoshlar, eng avvalo, san'atning nazariy va amaliy tushunchalariga ega bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli quyidagilarni bilishlari va o'rganishi lozim. Fanni o'qitishdan maqsad – kasb hunar kollejlari uchun etuk rassom-pedagoglarni tayyorlashda chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik fanini chuqur o'rgatish. Shuningdek bo'lajak rassom-pedagogga inson qiyofasini realistik tasvirlashda inson suyaklari, muskullari tuzilishi, statik va dinamik holatlarda ularning ko'rinishini tasavvur eta olishi kerak.

Fanning vazifasi – talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish;

- borliq ob'ektlarini loy va turli boshqa materiallar vositasida yasash jarayonida haykaltaroshlikga tayanish; inson, qush va hayvonlar haykaltaroshligi asoslari bilan tanishtirish;

Haykaltaroshlikning tasviriy san'atda tutgan o'rnini, Haykaltaroshlik mashg'ulotlarini o'tishda uning qonuniyatlari, odam va hayvonlarni haykallarini ishlashning o'ziga xosligi, muskullar tizimi va ularning tasviriy san'atda tutgan o'rnini, inson portretini tasvirlashda mimika muskullarining ahamiyati, Haykaltaroshlikning insonning dinamik hamda statik holatlari, qush va havonlarning haykaltaroshligi va uning tasviriy faoliyatga aloqasini ***bilishi kerak***;

Haykaltaroshlik darslarini rejalashtirish va tashkil etish; inson tana a'zolarini tasvirlay olish; inson skeleti, muskullar tizimi, qush va hayvonlarni anatomik jihatdan tahlil etish va tasvirlash, mashhur haykaltaroshlar: jumladan, Mikelandjelo Buanarotti, Roden, Konenkov, Vuchetich, Jo'ldasbek Quttimurodov, Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlarning turli uslubi, yo'nalishlarda ishlagan dastgohli, monumental asarlari, ularning turli texnik usul va uslublari; o'quvchi yoshlarga haykaltaroshlik mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lish*** kerak;

Kutilayotgan natija:

San'at, xususan haykaltaroshlik, istiqlol davrida mafkuraviy - g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ'ibot vositalarga o'xshab tezkorlik bilan javob bera olmasada, 1990 yillarning ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqib quyidagicha davom etdi.

Haykaltaroshlarning ijodiy uslublari 70- 80 yillar an'alaridan keskin farq lanmay tursa ham, 1990 yillarda yaratilgan asarlarida yangi g'oyaviy - mafkuraviy muhit ta'siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustuvorligi o'z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi. O'zbek xalqining tarixini va madaniy merosini haykaltaroshlar chuqur o'rganib, badiiy jarayonda ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

I. Bob . Haykaltarohslik asarlarini yaratishning muhim omillari .

1.1. Haykaltaroshlikni tasviriy san'at sohasida mistaqil janri sifatida rivojlanishi .

Haykaltaroshlik tarixi qadimiy Paleolit va neolit davrlaridayoq loy, suyak, shoh, toshning yumshoq xillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlanganligi ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlandi, firavnlarning katta haykal va rel'eflari yaratildi. Ularda firavnning qudrati ifodalandi, ko'pincha ilohiylashtirib aks ettirildi. Yunonistonda, qisman Qadimgi Rimda haykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalariga hizmat qildirildi (har tomonlama go'zal inson gavalantirildi). Xristian dini o'rta asrlarda haykaltaroshlikni sobor, ibodathonalarning muhit qismiga aylantirdi. Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Hindiston, Xitoyda budda ibodatxonalari ulkan haykallar bilan bezatilgan.

Hindistonda metal haykal tayyorlashning o'ziga hos texnikasi vujudga kelgan (haykal mumdan ishlanib, loy forma bilan qoplangan, qizdirilgan, mum oqizilib o'rni metal egallagan). Ayritom, Varahsha, Niso va boshqa joylardagi arheologiya obidalari bu erlarda ham Haykaltaroshlik qadimda rivoj topganini ko'rsatadi. 13-16 asrlarda haykaltaroshlik diniy mazmundan halos bo'la boshladi. 15-16 asrlarda Ital'yan haykaltaroshligida insonparvarlik g'oyalari ifodalandi (Donatello, L.Giberti, Verrokko kabi buyuk haykaltaroshlar). Uyg'onish davrida haykaltaroshlikda Mikelanjelo ijodi Evropa san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rus haykaltaroshligida 18 sar boshlaridan Haykaltaroshlik diniy mazmundan halos bo'la boshladi. 19 asrning 2 yarmidan Evropa san'atida Haykaltaroshlik demokratik ruhda taraqqiyot yo'liga kirdi. Realistik san'at uchun kurash avj oldi. Rus haykaltaroshligida peredvijniklar ta'siri kuchaydi. 19 asr ohiri 20 asrda haykaltaroshlikda ham formalistik oqimlar ta'siri avj oldi.



O'zbekistonda haykaltaroshlik sohasida, ayniqsa, 50-yillarda diqqatga sazovar asarlar yaratila boshladi. F.Grishchenko, A.Ivanov, N.Krimskaya, D.Ryabichev kabi haykaltaroshlar monumental haykal, dastgohli haykaltaroshlik sohasida samarali ishladilar. 60-yillardan M.Musaev, D.Ro'ziboev, A.Toirov, H.Husnitdinho'jaev, Q.SaloHiddinov, M.Ivanov, A.Ahmedov, YA.SHapiro, A.Boymatov, N.Feodoridis, P.Ivanov, L.Ryabtsev kabi iste'dotli yoshlar etishib, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini yarata boshladilar. Haykaltaroshlik – tasviriy san'at sohasi. Tasvirlanadigan narsani hajmli, o'lchovli (o'zunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettirish printsipiga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondagina ko'riladigan rel'efga bo'linadi. Rel'efning hajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda hizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arhitektura (friz, fronton, plafon va boshqalar) da foydalaniladi. Rel'efning past (barel'ef), baland (gorel'ef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan hillari ham bor.

Mazmun va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (monumental, yirik haykal inshootlar-jamoat joylariga o'rnatiladi., hajmi yirik qilib ishlanadi. Monumental bezak haykaltaroshligi (binolar, turli inshootlarga, bog', park, maydon, yo'l va boshqa joylarda muhitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, hajmi har hil: Badiiy fontanlar ham unga kiradi), dastgohli haykaltaroshlik (haykaltarosh dastgoh ustida ishlaydi; Mo'zey, ko'rgazma zallariga, binolarning inter'erlariga qo'yiladi, hajmi naturaga yaqin yoki sal yirik;

yaqindan ko'riladi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (rel'ef, tasvirli plastinka), medal', tanga, o'yinchoqlar, o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jihozlar, qurol va idishlarga ishlangan shakl-tasvirlar, zagarlikda rel'ef hosil qilib tayyorlangan bezaklarga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qismandastgohli haykaltaroshlik asarlari san'at sinteziga xizmat qildiriladi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan. Haykaltaroshlik asari oldida turgan vazifaga qarab uning hajmi, materiali belgilanadi. Haykaltaroshlik asarlari qadim zamonlarda, o'rta asarlarda, Uyg'onish davrida (ayniqsa barokko uslubida) ko'pincha turli ranglarga bo'yalgan 19-20 asrlarda, asosan, material rangli saqlandi yoki sidirg'a bo'yaladigan bo'ldi lekin antiq san'atda Qadimgi Rimda, Uyg'onish davrida ayrim ulkan haykaltaroshlar material rangini saqlaganlar yoki nim rangga bo'yaganlar. Haykaltaroshlikda foydalaniladigan asosiy materiallar: loy, mum, plastilin (haykaltarosh metall, yog'och steklar-qalamchalardan, halqalardan foydalanadi). Bu materiallar chidamsiz, shuning uchun ham ko'pincha eskiz tayyorlanadi, yoiniki model ishlanib, undan olingan forma orqali gips haykal ishlanadi. Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyuminiy), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib qotiriladi (boshqa materiallardan tayyorlangan modeldan forma-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berish, ishlov berish, berish haykaltaroshlik asari ishlanadi. Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazal't, diorim va boshqalar): suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib (bolg'a va yo'nadigan, kesadigan, o'yadigan asboblari yordamida) tasvir ishlanadi. Yog'och odatda, nim rang bo'ladi.

Keramika (terrakota, chinni hillari) haykaltaroshlik asarlari mahsus tuproqdan qorilgan loyni shaklga solib, keyin humdon, maxsus pechlarda (sirlab) qizdirib ishlanadi, ko'pincha sirlab turli rangga bo'yaladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarang, kichik hajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik hajmdagi asarni loydan tayyorlaydi. (aylanadigan dastgoh ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, taxtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va shakl hosil qiladi). Bu shakldan 2 yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi. Tosh haykal ishlanayotganda anashu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nushasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, o'zoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan mahsus korhonalarda amalga oshiriladi. Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin.

Misrda piramidalar va maqbaralar qurilishi podshoning hukmdorligini kanchalik kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Bu maqbaralarga vafot etgan fir'avnlarni dafn etilardi. Eng katta piramida eramizdan avval 2600 yil avval Memfis yaqinida fir'avin Heots uchun qurilgan. Piramidaning balandligi 150 metr, uning atrofini aylanib chikishi uchun 1 km yurish kerak. Uni qurishga 2300 harsang tosh ketgan. Toshning eng kichigi 2 tonna keladi Ulkan Sfinks Piramidalar yaqinida butun bir goyadan Sfinks-sher boshli juda katta haykal uyib ishlangan. Fir'avinlarning biri Sfinks shaklida tasvirlangan, haykalning balandligi 20 metrdan ortadi. Tosh pahlavon shunday qo'rquv uyg'otar ediki, dahshat otasi deb atashardi Bu ulkan piramidalar va Sfinks misrliklarga fir'avinlar oddiy odamlar emas, balki qudratli xudolardir degan fikrni singdirilishi lozim edi. Bu piramidalar hozir ham fir'avinlar hokimiyatining guvohi sifatida qad ko'tarib turibdi. Piramidalardan topilgan haykalchalar fir'avin taxtda (Qadimgi Misrdagi haykalcha), jangchilardan qochayotgan cho'ri (Qadimgi Misrdagi haykalchalar), Qadimgi Misrdagi tibbiyotda ishlatiladigan bronza asboblari, kohinning Qadimgi maqbaradagi haykalchasi, nazoratchining maqbaradagi haykalchasi, Fir'avin Tutanhomonning oltin tobuti (unda

marhumning yuzi tasvirlangan), amaldorning yogochdan ishlangan haykalchasi. Misrda makbaralarga uning egasining toshdan o'yib yoki yogochdan kesib ishlangan haykalchalari qo'yilgan. Mirsliklarning e'tiqodiga qaraganda, ruh haykalchaga ham joylashib olar ekan. Marhumni ulug'vor bir qiyofada tasvirlaganlar, marhum o'lganidan keyin ham, hayot vaqtida qanday bo'lgan bo'lsa, shunday bo'lib qolishi, fir'avin bo'lib qolishi kerak ekan. Biroq barcha haykalchalarning yuz qiyofalari har hil bo'lgan; Misrlik haykaltaroshlar insonning ko'z qiyofasini tasvirlashda katta mahoratga erishganlar. Haykallarning hayotiyliigi yana shu tufayli ko'proq ortganini, ularni bo'yoqlar bilan bo'yaganlar, ularga billur va rangli toshlardan ko'zlar ham yasaganlar. Maqbaraga kiruvchiga shunday tuyuladiki, bir necha ming yil ilgari yasalgan haykalcha emas, balki yirik odam qarab turgandek bo'ladi.

Evropaning janubida Bolqon yarim oroli bo'lib, uning janubiy qismi uncha katta bo'lmagan tog'lik mamlakat - Gretsiya joylashgan. Gretsiyada temir, mis, kumush, marmar konlari uchrab turadi. Arheologik tekshirishlar shuni isbotlab beradiki, eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda qadimda, evropada 1-sinfiy jamiyat va davlat tashkil topgan, fan va madaniyat ancha taraqqiyotga erishgan.

Gretsiyada IV-V asrlarda arhitektura juda rivojlangan. Qadimda grek memorchiligida portiklar yog'och ustunlar kutarib turadigan. Oddiy bostirmalardan iborat bo'lgan. Portiklar oftob nuridan saklagan va shabada esib turishiga halakit bermagan. Keyinchalik yogoch ustunlar o'rnini tosh va marmardan ishlanadigan bo'lga. Ustunlar 2 uslubda ishlangan. Doriy va Ioniya uslubida. Greklar binolar qurishda tosh ustunlar va yurtiqlardan foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V-1V asrlardagi haykaltaroshlar yogochni, toshni, marmarni yo'nib ishlaganlar, bronzani quyganlar. Marmar haykallarri odam badani rangi singari bo'yaganlar. Bronza haykallariga rangli toshdan ko'z yasaganlar. Yogochdan ishlangan ayrim haykallar ustiga odam tanasining rangini beradigan fil suyagidan ishlangan yupqa plastinkalar yopishtirilgan. Haykallar shu darajada qoyilmaqom qilib ishlanganki, ular tirikdek «Nafas olayotgandek», «hozir gapiradigandek» tuyulardi. Eramizdan avvalgi V

asrda haykaltaroshlar odam gavdasining harakat qilib turgan holatlarini tasvirlashni bilib olganlar. Ular odamlarni yugurayotgan, jang qilayotgan holatda yoki nayza otayotgan holatida tasvirlab ko'rsatganlar.

Afinalik haykaltarosh Miron ishlagan «Disk otuvchi» haykallarni ko'rgan kishi hayratga tushadi. Qadim doston va afsonalarda aytilishicha, haykaltaroshlar o'z asarlari uchun qahramonlarning qahramonlar, ma'budalarning poetik obrazlarini va butun bir manzaralarini tanlab olganlar. Haykaltaroshlar odam gavdasini juda kelishgan qilib tasvirlaganlar. Agar kishining qiyofasi xunuk bo'lsa, ellinlar buni tabiatning xatosi deb hisoblaganlar va o'z ishlarida san'at bu xatoni tuzatishi kerak deb to'g'irlaganlar. Haykaltaroshlar Zeves va Poseydonning sersavlat haykallari qiyofasida grek shahar davlatlarining dono hukmdorlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatganlar. Shaharning e'tiborli joylarida ellinlar o'z vataniga shon-shuhrat keltirgan lashkarboshilar, shoirlar, musobaqa g'oliblari haykallarini o'rnatganlar.

Rimliklar Gretsiya va SHarq mamlakatlaridan ko'plab haykallarni olib kelish bilangina chegaralanmay, marmar va bronzadan ushbu haykallarning nusxalarini ham yaratganlar.

Qadim zamonlardan oq yo'q bo'lib ketgan. Grek san'at asarlarini Rim haykaltaroshlari Grek haykaltaroshlaridan o'rganganlar va ularga tahlid qilganlar. Ko'pincha ular imperatorlarni xudolar va afsonaviy qahramonlar sifatida tasvirlaganlar. Rimliklar olimpiya xudolariga sig'inganlar,



ammo ularning nomlarini o'zgartirganlar. Masalan, Zevsni Yupiter deb dengiz xudosi Poseydonni Neptun, Gefstni esa Vulqon deb ataganlar. Imperator galabalarini ko'klarga ko'targan ishlangan haykallar Rel'eflar, arklar, ustunlar

imperator hokimiyatining xudo tomonidan - yaratilganligi va qurilganligiga ifoda etilishi lozim edi. Rim haykaltaroshlari portretlar yaratishda Grek ustozlaridan o'zib ketdilar. Qadim zamonlardanoq Rimda o'lgan odamlar yuzini mumdan quyib maska yasaganlar. Portret haykallar ishlash san'atini rivojlantirganlar. Rimda ishlanan portretlar odam qiyofasini tashqi ko'rinishi ifodalabgina qolmay balki uning xarakterini, irodasini, johilligini ochib berib aniq ifodalaganlar. Feodal jamiyatning qo'ynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi, G'arbiy Evropa hayotida muhim o'zgarishlarga olib keladi. Din o'z obrusini yo'qota borardi. Mayda hunarmandchilikdan manfakturaga o'tish, aharlarning tezlik bilan kengayib rivojlanib borishi yangi qit'alarning ochilishi va savdo-sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayotini o'zgartira boshlandi. U davrga kelib «qirol hokimiyati shahar aholisiga suyanib feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik aslida millatlarga asoslangan monarxiya tuzdi. Bu monarxiya hozirgi zamon Evropa millatlari va hoziri zamon burjua» jamiyatini taraqqiyotga boshladi. Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyat kamol topdi. O'z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu madaniyat tarixda Uyg'onish deb nom oldi. Bu iborani Italiyalik rassom va san'atshunos Jorj Vazarya Italiyada san'at o'zoq O'rta asrdan so'ng yana qaytadan Uyg'onlanligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo'llanilgan edi. Keyinchalik esa bu keng mazmunda kasb etib Italiyada, so'ngra Evropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan feodalizm asridan farq qiladigan san'atni tarflash uchun qo'llanila boshladi. Uyg'onish davri o'z harakatini Italiyada to'liq namoyon etib qaror taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri - protorepessans (XIII-XIV asrlar).



2. Ilk uyg'onish davri - kvatrachento (XV asr).
3. Yuqori uyg'onish davri - (XV asrning 90 yillari XVI asrning 20-30 yillari).
4. So'ngi Uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi).

Tasviriy san'at. Tasviriy san'atda sodir bo'lgan hususiyatlar ham me'morchilikdagi ulugvorlikka umumlashgan obrazlar yaratish hamda mahoratlashtirishga harakat kilishda namoyon bo'ldi.

Leonardo da Vinchi (1452-1529). Vinchi kishlogi yakinida natarius oilasida dunyoga keldi. Leonarda 17 yoshida otasi Florentsiyaga ko'chib o'tadi. SHu erda Leonardo Andrea Veroniko ustohonasida tasviriy san'at borasidagi bilimini oshirdi. U o'z ustozi Verokkioga yordamlashib uning «Isoni cho'qintirish» (tah. 1476 yil Florentsiya galeriyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishladi va ustozidan ham mohirligini kursatadi. Leonardo san'atning kupgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rdi. Matematika, fizika sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surdi Uning uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» asari, hayotni urganish zaminida yuzaga kelgan kalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlaridir. Leonardo da Vinchi me'mor sifatida ham Milanda bir qator san'at proektlari ishladi «Gordagi Madonna» (1483-1484), «Sirli okshom» (1495-1497) kabi asarlarini Milandagi «Sant Mariya della Gratsiya» monastri uchun ishlangan sur'ati uni navator rassom darajasiga kutaradi. Milan Frantsiya kushinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florentsiyaga kaytib keladi. Bu erda mashhur «Mono Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mono Liza» portreti (1503) jahon rangtasviring mashhur yodgorligidir. Bu portret bilan Evropa san'atida chukur psihologik portret san'ati boshlanadi. Rafael' Santi (1483-1520) Leonardoning kichik zamondoshi bo'lib, oddiy rassom Javanniy Santining farzandi edi. Rafael' rassomlik asoslarini dastlab otasidan urgandi, sungra urbinalik rassom Timoteo Viti ustahonasida davom ettirdi. 1500 yili Perujino ustahonasida o'z bilimini oshirdi. U ilk asarini 17 yoshida ilk asari «Konstebel'

Madonnasi» (1500) rassom ijodining ilk namunasidir. Perudjiyada 4 yilga yaqin bo'lgandan sung Rafa'el yana Urbinaga qaytdi va bir ozdan keyin Florentsiyaga keldi.

Bu erda o'zining mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan «Madonnalar» obrazini yaratdi. Uyg'onish davrining ijodkorlardan biriga aylandi. XVI asr boshlariga kelib Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylanadi. Rafael'ni ham 1508 yili Rimga taklif qildilar. SHu paytdan boshlab Rafael' ijodining eng gullagan davri boshlandi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shahsiy honalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael' bu ishni muvaffakiyatli bajardi va bundan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezashni va unga devoriy sur'atlarni ishlashni topshirishdi. U o'zining ajoyib dekorativ usta sifatida ko'rsatdi. Bu sur'atlar papalarning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashni ko'rsatishi, yo'qolib borayotgan cherkov obruini qayta tiklash va mustahkamlashi zarur edi. Rafael'ning yana bir mashhur devoriy sur'atlaridan bu «Iliadorning quvilishi» kompozitsiyasidir, Rafael' Rimda bo'lgan kezlarida yana bir mashhur «Sikst Madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi. Bu sur'at avliyo Sikst cherkovi uchun mo'ljallangan. Bu asarda rassom o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan ideal inson obrazini yaratib, o'z davrining kishilarini gumanistik ideallarini poetik talqin eta oldi. Rafael' ijodining so'nggi yillarida rassomchilik bilan birga me'mor sifatida ham ijod qilgan.

Mikelanjlo Buonarotti (1475-1564). U san'atning kup turlarida, jumladan haykaltaroshlik, me'morchilik rassomlikda ijod qilgan, lekin u san'atning qaysi turida ijod qilmasin shakliy jihatdan tugal, goyaviy jihatdan chuqur badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi. Mikelandelo 70 yillik faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratildi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak idellarink bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham nozik his etgan holda ko'rsata oldi. Mikelanjelo 1475 yili 6 martda Florentsiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida

dunyoga keldi. Uning yoshligi Florentsiyada o'tdi, 13 yoshida u Florentsiyalik Dameniko Girlandio ustaxonasiga o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste'dodi Florentsiya hokimi Lorentso Medchuni o'ziga tortdi. Uni Medichilar saroyi koshidagi bediyy maktabga o'qishga olishdi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalaridan tanishdi va ulardan kuchirmalar ishladi. Saroyda bo'lib turadigan mashhur shoir, rassom haykaltarosh va me'morlar yigilishida vokif bumish san'atkor dunyokarashi rivojlandi. San'atkorning birinchi mustakil ishlagan asari «Zina oldidagi Madonna» (1492), «Kentavrlar jangi» (1494), Rimda yaratilgan «P'eta» (Isoga aza tutish 1498-1501) haykali Mikelakjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. 1501 yili Mikelanjelo Florentsiyaga qaytadi va shu erda mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat 1504 yili bu haykal Florentsiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Mikelanjelo o'zini haykaltarosh deb hisoblar edi, lekin rangtasvir san'atida ham o'z zamondoshlaridan o'zib ketardi. 1503-150 yillarda yaratgan «Mukaddas oila» asarning mazmuni yanada chuqurlashishi va ta'sirchanligini ortirishida katta ahamiyatga ega. Uning 1513-1516 yillarda ishlagan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul», «Ibrohim» haykallari, «Qiyomat qoyim» (1514) asarlarini yaratdi. Mikelanjelo ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga kuchli ta'sir qildi. O'rta Osiyoda dastlabki O'rta asr elementlari va Quldorlik formatsiyasi inqirozi III-IV asrlarda boshlandi. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning tez-tez hujumi Kushon imperasining inkiroziga yuz tutishiga olib keldi. Eftaliylar O'rta Osiyo yerlarini o'z hukmdorligiga bo'ysindirish davrida yangi farmatsiyaga o'tish yanada tezlashdi. Bu Oltoy, Ettisuv, Markaziy va O'rta Osiyoda yashovchi juda ko'p halklarni birlashtirdi. Turk haqonligi davrida mayda mustaqil podisholik paydo bo'ldi. Ayniqsa Sharq va G'arb karvon yo'li ustida joylashgan Sug'd madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo'lgan. Sugd eng katta knyazlik hisoblangan. Samarkand hokimi Sug'd podishosi unvoniga sazovor bo'lgan. Yozuv manbalari IV asrda Samarqand savdogarlarining O'rta Osiyo va uning tashqarisida ham, masalan, buyuk Hitoy devori yaqinidagi Dunhuadi koloniyalar mavjud

bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Lekin knyazlar O'rtasida kuchli birlik yo'q edi. U albatda, keyin arablarda qaram bo'lib qolishga sabab bo'lib qoladi. Bu davrda ko'plab ibodathona va hashamatli qasrlar qurila boshlagan. Xitoylik tarixchi Samarqand va Buxoro O'rtasida qurilgan hashamatli bino hammani juda hayratlantirganligi binoning shimoliy devorida buyoqlar bilan hitoy imperatorining tasviri; Sharqiy devorida turk haqonlari va Hindiston hukmdorlari; G'arbiy devorida esa eron va Rim podsholari tasviri tushurilganligi haqida aytadi. O'rta Osiyoda quldorlik formatsiyasi inqiroziga yuz tutib o'z o'rnini feodalizmga bo'shatib berdi. Bu farmatsiya qurilish ishlarida yaqqol ko'rina boshladi.

Ustun, yarim ustun, ark hamda turli dekorativ me'morlar hajmlarida podisho saroyining xushmanzara va mahobatli bo'lishida foydalanilgan. Bu binolar xom gisht paxsadan ishlangan bo'lib ganch bilan bezalgan. Ganch, yogoch o'ymakorligi binoga fayz kiritgan. Ilk feodaliz davrida O'rta Osiyoda yagona din bo'lmagan jumladan, Fargona vodiysi Quvadan topilgan ibodatxona xarobasi ilk feodalizm davrida ham bu erda buddizm mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu erdagi ibodatxona ikki xonadan iborat bo'lib, oldi xonasi ayvon tepada va unga kiraverishda haykallar o'rnatilgan. Xorazmda topilgan kumish marosimi bilan bog'liq bo'lgan Ossuriy bo'lgan deb nomlangan turtburchak quticha shaklidagi loydan yasalgan tobutchalar bu erda zorastrizm mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Dumaloq va bo'rtma tasvir shaklida me'morchilik komplekslaridan keng ishlatilgan. Bu haykalalarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar mahsus loydan tayyorlangan, yogoch, ganch va toshdan ishlangan. Bu xususida varaxshadan topilgan yodgorliklar diqqatga sazovordir. Varaxshadagi saroyini bezashda ganch o'ymakorligidan keng qo'llanilgan. Albatta ilk feodalizm madaniyatining ilk yutuqlari monumental dekorativ rangtasvir san'atida o'zini to'liq namoyon qildi. Afrosiyob (Samarkand), Panjikent (Tojikiston), Varahsha (Buhoro viloyati), Bolalik tepa (Surhandaryo viloyati)da topilgan, Devoriy

sur'atlar va haykaltaroshlik namunalari jahon monumental rangtasvir san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. O'rta Osiyo jahonga qator buyuk allomalar etkazib berdi. Ular o'z mehnat va aql zakovatlarini bilan jahon ilmi fan taraqqiyotiga katta hissa kushdi. Al-Horazmi, Abu ali Ibn Sino, Al-Beruniy, Al Farobiy, Al Buhoriy, Nakshbandiy; Ulugbek, Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Zebinosi kabi alloma va shoirlarni etkazib berdi. Amir temur davrida O'rta Osiyoda ilm fan san'at gullab yashnadi. Me'morchilikda har o'zgarishlar yuz berdi. Afrosiyob yonbagrida joylashgan SHohi-Zinda Bibihonim madrasasi Guri Amir Makbarasi Registondagi Ulug'bek madrasasi fikrimizga dalildir. Ulug'bek fallakiyot rivojlangan bo'lsa, Husayin Baykaro podisholigi davrida adabiyot va san'at rivoj topdi. Haykaltaroshlik san'atining asari o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini iste'dodli ijodkorlar Damir Ro'ziboev, Abdumumin Boymatov, Joldasbek Quttimurotov, Ilhom Jabborov, Anvar Ahmedov, Eynulla Aliev, Ulug'bek Mardiev kabi haykaltaroshlar faoliyatida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Haykaltarosh Ilhom Jabborov yangilanish va Uyg'onish davrida Buyuk sarkarda Amir Temur obrazini yaratdi. Turli yillarda haykaltaroshlar tomonidan «Farhod» «Ibn ino» «Forobiy», «Navoiy va Jomiy», «G'ofur G'ulom», «Alisher Navoiy» «Beruniy», «Bobur», «Hamid Olimjon» kabi buyuk mutafakkir olim, davlat arboblarning siymolari yaratildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach san'at va madaniyatda yangi sahifalar ochila boshladi. Qisqa davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratildi. Ana shunday milliy uyg'onish davrida O'zbekiston Mustaqilligi bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod man'aviyati, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyati va san'atning rivojiga alohida e'tibor berildi. Zotan ma'naviyat, madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emas. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, - deb yozadi Prezident I.Karimov, - ajdodlarimiz tomonidan ko'p

asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, halqning ma'naviy sharchashmalariga uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”.

O'zbekistonda yangi ma'naviy – g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etadi, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. San'at, xususan, haykaltaroshlik, istiqlol davrida mafkuraviy-g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot-targ'ibot vositalariga o'hshab tezkorlik bilan javob bera olmasada, mustaqillik yillarida yaratilgan haykaltaroshlik asarlarida yangi g'oyaviy-mafkuraviy muhim ta'siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustivorligi o'z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik haykallari barpo etildi.

I.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.”O'zbekiston” 1997 yil 137 bob.

Halqimizning boy ma'naviyati, turmush tarzi, urf-odatlarini chuqur o'rganish yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni ma'naviy shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo Da Vinchi “Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o'z san'ating bilan taqlid qilishda ustasi farang bo'lmasang, yahshi musavvir bo'lmog'ing dargumon” deb takidlash orqali haykaltaroshlik san'atining sir-asrorlarini egallash, tabiatni o'rganish, uni sevish bilan naqadar bog'liqligini ko'rsatib, bu sohani o'ta murakkab soha ekanligini uqtirgan edi. Shuning uchun ham badiiy bilim yurtlarida haykaltaroshlik mashg'ulotlarini ham tarixiy-nazariy, ham zamonaviy-amaliy jihatdan olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Haykaltaroshlik bilan shug'ullanish talabalarning fazoviy tasavvurini, fikrlash qobiliyatini, narsa va predmetlarning plastik shaklini his etishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu

maslh'ulotlar talabalarda o'ziga hos badiiy estetik his-tuyg'ularni uyg'otish bilan bir qatorda ulardagi go'zallikni ko'ra olishni, ijodiy qobiliyatni va estetik didlarini o'stiradi. Bu shubhasis ularni Vatanga, el-yurtga, ota-onaga, tengdoshlariga bo'lgan hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalashga hizmat qiladi, ma'naviy kamolotga etaklaydi. Haykaltaroshlik tarihi qadimiy Paleolit va neolit davrlaridayoq loy, suyak, shoh, toshning yumshoq hillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlanganligi ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlendi, firavnlarning katta haykal va rel'eflari yaratildi. Ularda firavnni qudrati ifodalandi, ko'pincha ilohiylashtirib aks ettirildi. YUnonistonda, qisman Qadimgi Rimda haykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalariga hizmat qildirildi (har tomonlama go'zal inson gavdalanirildi). Xristiyan dini o'rta asrlarda haykaltaroshlikni sobor, ibodathonalarning muhit qismiga aylantirdi.

Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Hindiston, Xitoyda budda ibodathonalari ulkan haykallar bilan bezatilgan. Hindistonda metal haykal tayyorlashning o'ziga hos texnikasi vujudga kelgan (haykal mumdan ishlanib, loy forma bilan qoplangan, qizdirilgan, mum oqizilib o'rni metal egallagan). Ayritom, Varahsha, Niso va boshqa joylardagi arheologiya obidolari bu erlarda ham Haykaltaroshlik qadimda rivoj topganini ko'rsatadi. 13-16 asrlarda haykaltaroshlik diniy mazmundan xalos bo'la boshladi. 15-16 asrlarda Ital'yan haykaltaroshligida insonparvarlik g'oyalari ifodalandi (Donatello, L.Giberti, Verrokko kabi buyuk haykaltaroshlar). Uyg'onish davrida haykaltaroshlikda Mikelanjelo ijodi Evropa san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rus haykaltaroshligida 18 sar boshlaridan Haykaltaroshlik diniy mazmundan halos bo'la boshladi. 19 asrning 2 yarmidan Evropa san'atida Haykaltaroshlik demokratik ruhda taraqqiyot yo'liga kirdi. Realistik san'at uchun kurash avj oldi. Rus haykaltaroshligida peredvijniklar ta'siri kuchaydi. 19 asr ohiri 20 asrda haykaltaroshlikda ham formalistik oqimlar ta'siri avj oldi.

O'zbekistonda haykaltaroshlik sohasida, ayniqsa, 50-yillarda diqqatga sazovar asarlar yaratila boshladi. F.Grishchenko, A.Ivanov, N.Krimskaya,

D.Ryabichev kabi haykaltaroshlar monumental haykal, dastgohli haykaltaroshlik sohasida samarali ishladilar. 60-yillardan M.Musaev, D.Ro'ziboev, A.Toirov, H.Hushitdinov, Q.Salohiddinov, M.Ivanov, A.Ahmedov, YA.S Shapiro, A.Boymatov, N.Feodoridis, P.Ivanov, L.Ryabsev I. Jabborov, J.Mirtadjiev A. Rahmatullaev kabi iste'dotli haykaltaroshlar etishib, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini yarata boshladilar.

Tasvirlanadigan narsani hajmli, o'lchovli (uzunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettirish prinsipiga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondagina ko'riladigan rel'efga bo'linadi. Rel'efning hajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda hizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqalar) da foydalaniladi. Rel'efning past (bare'ef), baland (gore'ef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari ham bor.

Mazmun va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (monumental, yirik haykal inshootlar-jamoat joylariga o'rnatiladi, hajmi yirik qilib ishlanadi. Monumental bezak haykaltaroshligi (binolar, turli inshootlarga, bog', park, maydon, yo'l va boshqa joylarda muhitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, hajmi har hil: Badiiy fontanlar ham unga kiradi), dastgohli haykaltaroshlik (haykaltarosh dastgoh ustida ishlaydi; Muzey, ko'rgazma zallariga, binolarning inter'erlariga qo'yiladi, hajmi naturaga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko'riladi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (rel'ef, tasvirli plastinka), medal', tanga, o'yinchoqlar, o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jihozlar, qurol va idishlarga ishlangan shakl-tasvirlar, zagarlikda rel'ef hosil qilib tayyorlangan bezaklarga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qismandastgohli haykaltaroshlik asarlari san'at sinteziga hizmat qildiriladi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy

ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan. Haykaltaroshlik asari oldida turgan vazifaga qarab uning hajmi, materiali belgilanadi.

Haykaltaroshlik asarlari qadim zamonlarda, o'rta asarlarda, Uyg'onish davrida (ayniqsa barokko uslubida) ko'pincha turli ranglarga bo'yalgan 19-20 asrlarda, asosan, material rangli saqlandi yoki sidirg'a bo'yaladigan bo'ldi lekin antiq san'atda Qadimgi Rimda, Uyg'onish davrida ayrim ulkan haykaltaroshlar material rangini saqlaganlar yoki nim rangga bo'yaganlar.

Haykaltaroshlikda foydalaniladigan asosiy materiallar: loy, mum, plastilin (haykaltarosh metall, yog'och steklar-qalamchalardan, halqalardan foydalanadi). Bu materiallar chidamsiz, shuning uchun ham ko'pincha eskiz tayyorlanadi, yoki model ishlanib, undan olingan forma orqali gips haykal ishlanadi. Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyuminiy), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib qotiriladi (boshqa materiallardan tayyorlangan modeldan forma-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berish, ishlov berish, berish haykaltaroshlik asari ishlanadi.

Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorim va boshqalar): suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib (bolg'a va yo'nadigan, kesadigan, o'yadigan asboblardan yordamida) tasvir ishlanadi. Yog'och odatda, nim rang bo'ladi.

Keramika(terrakota, chinni hillari) haykaltaroshlik asarlari mahsus tuproqdan qorilgan loyni shaklga solib, keyin xumdon, maxsus pechlarda (sirlab) qizdirib ishlanadi, ko'pincha sirlab turli rangga bo'yaladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarab, kichik hajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik hajmdagi asarni loydan tayyorlaydi. (aylanadigan dastgoh ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, tahtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va

shakl hosil qiladi). Bu shakldan 2 yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi. Tosh haykal ishlanayotganda anashu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nusxasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, uzoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan maxsus korxonalarda amalga oshiriladi. Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin.

1.2. Haykaltaroshlikda tasviriy san'at asarlarining yaratilish shart – sharoitlari va uslublari .

Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turi ; borliqni hajmli shakllarda , makonda uch o'lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob'ekti asosan; inson (portpet) va shuningdek hayvvonlar ya'ni (animalistika), tabiat (manzara) hamda narsalar (natyurmort). Haykaltaroshlikning ikkita asosiy ko'rinishi – aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'rtma (qabariq tasvir) re'lef turi farqlanadi. Rel'ef, o'z navbatida yuzaga nisbatan bir oz bo'rtirib ishlanadigan barel'ef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo'rttirib ishlanadigan (gorel'ef)ga bo'linadi; shuningdek nur - soya o'yni hisobiga tasvir ko'zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan yana o'yma ko'rinishga mavjud.Haykaltaroshlik bajaradigon vazifasi va mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi; monumental haykaltaroshlik , bezak haykaltaroshligi, dastgoh haykaltaroshligi mayda haykaltaroshlik turlari (xalq haykaltaroshligi) o'zaro yaqin aloqada rivojlanadi hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Me'morlik san'ati bilan bo'lgan monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida bb o'rnatilgan mo'numental haykaltaroshlik ansambillari kiradi, ular o'zida kitta mazmunni ifodalaydi hamda mustaqil ahamiyatga ega; biroq haykaltaroshlikning bu turi bevosita muhit, me'moriy inshootlar tabiat bilan uyg'un bo'lishi lozim , bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Monumental haykaltaroshlikka xos bo'lgan xususiyatlardan biri qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta - katta yaxlit shakllardan keng foydalanilad odam yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagi buklanishlar, mayda qismlar ko'rsatilmasligi mumkin

Bezak haykaltaroshlikka istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va bog'lar, shuningdek me'moriy binolarning devorlarini bezash uchun ishlanadigan turli bezak haykallar kiradi; bunday asarlarda ramziy obrazlar, hayvonlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlari yuzasiga ishlanadigan bezaklar, favvora panjara, badiiy darvozalar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishlaridir.

Dastgoh haykaltaroshlikka mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turiga tobe bo'lmagan asarlar kiradi; ular ko'rgazmalar, muzey xonalariga uylarning inter'erlariga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bu turdagi asarlarda voqeylik o'zining butun borlig'i bilan aks ettiriladi hamda inson ruhiyatidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta.

Dastgoh haykaltaroshlik asarlari byust (belgacha bo'lgan portret), tors, haykal (odam gavdasining natural kattalikda ishlangan ko'rinishi), haykalcha (natural kattalikdan kichik bo'lgan haykallar), koloss (haddan ortiq kattalikda ishlangan haykallar mas., Rodos colossi), janrli haykal (muayyan muhitda tasvirlangan odam yoki odamlar gurihi) va ko'rinishda bo'ladi. Kichik shakllar haykaltaroshligi o'z xarakteriga ko'ra amaliy bezak san'atiga yaqin turadi. Bunga stol ustuga qo'yiladigan spool, chinni va boshqa xom ashyolardan ishlanadigan haykallar kiradi. Eng ko'p tarqalgan turlaridan biri terrakota, medal yasash san'ati va gliptika ham shu turga mansub. Haykaltaroshlikda ijodkor nursoya foydalanish orqali asarning ta'sir kuchini oshirishga erishadi (nur tushishi bilan haykal jonlanadi, nur yo'nalishining o'zgarishi bilan undagi nursoya tovlanishi ham o'zgaradi, natijada undan oladigan taassurot ham o'zgacha bo'ladi.) Bu ayniqsa monumental va bezak haykaltaroshlik asarlari uchun qo'l keladi, chunki maydon yoki xiyobonlarga o'rnatilgan haykalga ertalabki quyosh nurlari bir jozibabersa kechki kun botish paytidan quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi.

Haykaltaroshlikda insonning tashqi ko'rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi, asarda kechinmalar hayajon, g'amginlik va boshqalar ham o'z ifodasini topadi. Haykaltarosh mahorati, to'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimic holat asarning ta'sirli bo'lishida muhim o'rin tutadi. Haykaltaroshlik asarlari uchun tosh, granit, bronza, marmar, yog'och, metal (oltin, kumush, nikel kabi qimmatbaho metallar), siment, gips kabi turli materiallar ishlatiladi. Haykaltaroshlikda tanlagan xom ashyo uning rangini belgilaydi . Xalq haykaltaroshliklidagina haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Haykaltaroshlik asarlari yaratishda yumshoq moddalar (maxsus loy, mum, plastilin va boshqalar), qattiq moddalar (turli nav toshlar yo'goch va b.)dan kesib, yo'nib yoki o'ymakorlik bilan yaratiladi. Suyuq holatdan qattiq holatga o'tish xususiyatiga ega bo'gan moddalar (turli metal, gips, beton va boshqalar) dan kollaj yordamida quyib ishlanadi. Keramika haykaltaroshlik asarlarni tayyorlashda maxsus loy navlaridan foydalaniladi va shakl bo'yama naqsh yoki rangli sir bilan qoplanadi va maxsus pechlarda kuydiriladi. Haykaltaroshlik asari taglikka (pepastament yoki p'edestalga) o'rnatiladi. Ba'zan haykaltarosh maqsadini yuzaga chiqarishda bir necha taglikka o'rnatilgan haykallar, rel'efidan foydalanish mumkin.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida Chirchiq shahrining markaziy shoh ko'chasida va poytaxtimizning milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorliklarni qayd etish joizdir.

II Bob. Haykaltaroshlikning bo'rtma turida amaliy ish bajarish jarayoni.

2.1. Rel'ef haykaltaroshlikning mustaqil ko'rinishi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi – san'at vositasida o'quvchilarning badiiy madaniyati va estetik didini tarkib toptirish, ularning san'atga bo'lgan muhabbatini oshorishdan iboratdir. Shuningdek bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning turli asbob uskunalar bilan ishlash hamda turli xildagi materiallardan o'rinli foydalanish bilan malakasini shakllantirish, olingan nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliyoptga tadbiq etish kabi sifatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida haykal yasashning rel'ef turidan kengroq foydalanishadi. Faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'rtma (qabariq tasvir) rel'ef deb yuritiladi. Rel'ef, o'z navbatida yuzaga nisbatan bir oz bo'rtirib ishlanadigan barel'ef hamda tasvir yuzaga nisbatan ancha bo'rttirib ishlanadigan garel'efga bo'linadi. Shuning uchun ham natyurmort rel'efini yasashda naturani tashkil qiluvchi narsa va predmetlarni tasvirini uning joylashuv o'ri hamda shakllarining katta kichiklik nisbatlari hisobga olinadi.

Rel'efli tasvirlar ishlaganda matematik hisoblar bo'yicha emas, ishni badiiy sezgi va mantiqqa tayanib ko'z bilan chamalab bajariladi. Natijada natyurmort fazoviy va hajmi ifoda etiladi. Kompozitsiyada shakllar tekislikdan turli holatlarda joylashishi (yaqin yoki uzoqda, ichkarida bo'lishi qisman bir – birini to'sib turishi) mumkin. O'quv natyurmortlarini bajarganda drapirovkalardan keng foydalanish kerak. Bunda talabalar matolarning turli burmalarini nafisligini o'rganib va ularni tasvirlashni mashq qilishadi. Bundan tashqari fonga matolar qo'yish butun kompozitsiyani jamlaydi, uni jonlantiradi, yanada mazmunli va ifodali qilib ko'rsatadi.

Rel'eflarni qurish qonuniyatlarini tushunish uchun old tekisligiga e'tibor berish kerak. Rel'efning butun tasviri go'yoki ko'rinmas parallelopipedda joylashgandek tuyuladi. U bir tomondan aniq orqa tekislik, fondan tashkil

topsa, boshqa tomondan undagi tasvirlarga parallel ravishda oldingi tekislikdan iborat bo'lib, shakllarda bo'rtib turgan eng yuqori nuqtalari mavjud bo'ladi. Bunday oldinga chiqib turgan eng baland nuqtalar uchburchak shaklida bo'lib joylashadi va kamida uchta nuqtadan iborat bo'ladi.

Nuqtalar qanchalik ko'p bo'lsa rel'ef shunchalik to'la, yaxlit va haqqoniy bo'ladi. Rel'efning hajmlari ustida ishlashda buyumlarning oldingi tekisligidan orqa tekisligi gacha kichrayib borishini ko'rsatishni hisobga olishimiz lozim. To'g'ri kichraytirish oshirilsa, rel'efning silliqligi, nafisligi va fazoviy yaxliligisqalab qolinadi va dumaloq jism hajmdorligi hissiyoti yaratiladi.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining dastlabki qismida talabalar odatdagidek yasalishi rejalashtirilagan gips model bilan tanishadilar. Shu tariqa naqsh namunasi yoyilmasi tanlab olinadi va uning haqiqiy kattaligi o'lchamida ishlashga kirishiladi. Gips rozetka shunday balandlikka joylashtirilishi lozimki, ufq chizig'i uning qoq markazidan o'tsin. Talaba bajarayotgan topshiriq ham ana shunday balandlikda bo'lishi talab etiladi. Chunki talaba topshiriqni tik turgan holatda amalga oshiradi. Dastlabki bosqichda rozetkaning balandligi eninga o'lchash va uning qalinliklarini belgilab olishdan iborat bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, gips naqqshni bajariladigan zamin loy bilan bir xil qalinlikda t'ldirib, shundan so'ng silliq qilib tekislanadi. Bu shuning uchun zarurki, chunki notekis fonda naqsh elementlari qanchalik darajada mohirona tasvirlanmasin uning kompozitsion jozibasi ko'rinmay qoladi.

Balandligi eniga mos ravishda bajariladigan fon yuzasiga o'tkir stek yoki pichoqcha uchi bilan naqsh tasviri aniq tushiriladi. Bunda talaba vertikal, girizontal va diagonal yordamchi chiziqlardan foydalanish mumkin. Tasvirni zamin taxtachaga tushirishda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, naqsh abrisi (konturi) kompozitsion maqbul joylashishi lozim. Ushbu amal bajarilgandan so'ng vazifaning keyingi bosqichga o'tiladi.

Rel'efda hamma predmetlar hajmi asosiy tekislikka parallel ravishda kichrayadi. Bu kichrayish o'z – o'zidan erkin bo'lavermaydi, balki perspektiv kichrayishlar ma'lum qonuniyatlarga bo'ysinadi. Rel'eflar tuzilishining qonuniyatini predmetning eng keng joyidan kesisish tekisligini o'tkazib predmet proeksiyasini ko'rinishini tasvirlashda yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab biz oddiy bir pretmetli natyurmortning rel'efda qurilish prinsipini ko'rib chiqamiz.

Bunga misol qilib oddiy bir ko'zachaning old va yuqori tomonidan kirish chizmalari tasvirlanadi. Natyurmortni rel'efda tasvirlaganda uning hajmi (chuqurligi) perspektivada kichrayib boradi va ko'zaning aylana hajmi ellips shakliga yaqinlashib boradi.

Rel'ef qurishni yanada chuqurroq tushunib olish ichun ko'za rel'efi chuqurligidan 8 sm deb olamiz .

Bunda “ oltin kesim “ qonuniga binoan 8 smli ko'za hajmi 5: 3 nisbatda ifoda etiladi. Bu esa o'rta tekislik rel'ef chuqurligini ikki teng bo'lmagan qismga 5:3 nisbatga bo'ladi 5 qismi - ko'rinib turgan hajmi bo'lsa, 3 qismi - ko'rinmaydi. Lekin u haqiqiy mavjud hajm bo'lib, odam ko'zani chetyki hajmi chiziqlarini tekislikning to'g'ri nuqtalarida ko'ramiz.

Shu tarzda ko'zani rel'efda tasvirlaganda uning tashqi konturini ko'rsatuvchi chiziqlarni tekislikdan 5: 3 nisbatdagi proportsiyada chizish kerak.

Ko'zacha konturini ko'rinmaydigan qismini tekislikka ichki yo'nalishda nuqtalar bo'yicha kesiladi.

Endi murakkabroq bo'lgan natyurmort rel'efi tasvirini ko'rib chiqamiz .Kompozitsiyada ko'zacha yonida metall idish va olmani qo'yamiz .Bunday natyurmortning tashqi ko'rinishi va haqiqiy loyihasini old va yuqori tomonlarinining ko'rinishlari ko'rsatiladi. Yuqoridan qaraganda predmetlar o'rta tekisliklari bariladi. Natyurmortning haqiqiy hajmlarini rel'efda bajarsak,

u tekis ellipsoid shakli ko'rinishida bo'ladi. Har bir shaklning o'rta tekisligi rel'ef chuqurligini 5:3 nisbatda bo'ladi. Tadqiqotlardan ma'lumki, hajmlarning chuqurlikka qisqarib borishi perspektiva qonunlarining asosi bo'lgan - "oltin kesim" nisbatlari qonuni bo'yicha amalga oshirilishi kerak. "Oltin kesim" qonuni quyidagi nisbatlarda 3:5, 5:8, 8:13 va hokozalarda belgilanadi.

2.2. Vazadagi gullar natyurmort rel'efining yasash jarayonining borishi

. Haykaltaroshlikning ikkinchi bir turi bo'rtma haykallar yasash bilan bo'g'liq bo'lgan rel'eflar yasash orqali asarlar yaratish mumkin. Unda har xil naqsh ko'rinishlaridan tortib to buyumlar va mevalar hamda turli mavzulaga xos bo'lgan pretmetlar tasvirini bo'rtma ko'rinishda yasash shu jumladan gullarni ham haykaltaroshlikda tasvirlab bo'rttirib ishlah mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy qismida bajrilgan kartinada natyurmortni rangtasvir bilan omuxta qilingan korinishdagi rel'efi ishlangan. Ish jarayonining tafsilotlarini aytadigan bo'lsak, bunda oddiy qog'oz parchalarini bir biri ustiga elimlab keraklicha qavatlab shaklni yasashga muvaffaq bo'lindi. Odatda haykaltarohlikda ko'pincha rang ishlatilmaydi, shunday bo'lsada devoriy surat tasviridagi asarlarda qisman rang ishlatiladi, buni xalq haykaltaroshligida uchratish mumkin. Sovg'a (suviner) ko'rinishidagi haykaltaroshlik ishlarida bezak berish uchun ranglardan faoydalaniladi. Shu tariqa amaliy ishda ham natyurmortdagi elementlarni o'zining haqiqiy holatidagi ranglarini berishga harakat qilindi. Guldagi yaproqlar turli shakldagi barglarga ham yashil gammadagi ranglar berilib ularning hajmdorligini yanada boyitish uchun toq jigarranda siyoh qalam qilindi.

Ikki (yassi) hamda uch o'lchamga (hajmga) ega bo'lgan naturalar rel'fini yasashda tasviriy san'atning asosini tashkil qiladigan kompozitsiya, proporsiya, konstruksiya, perspektiva kabi tushunchalarni o'zlashtirib olish kerak bo'ladi. Haykaltaroshlik bilan shug'ullanish uchun barcha qulaylik yaratilib yasash ishlarining mashqi olib bo'lingach natyurmort tarkibiga kiruvchi buyumlarni panno o'lchamiga moslab kompanovka qilishdan va dastlabki materiallarni yopishtirishdan boshlash lozim. Kompanovka deganda chizilishi kerak bo'lgan natyurmort rasmini panno yuzasiga o'lchamiga to'g'ri uyg'un joylashtira bilish tushuniladi. Kompanovka bu yerda yuqorida ta'kidlangan kompozitsiya so'zi bilan bir ma'noga ega. Natyurmort tarkibiy qismlarining to'g'ri kompozitsiyasi topilgach pannoga joylashtirishning maqbul varianti tanlanadi. Bunda albatta

natyurmort tarkibiga kiruvchi buyumlarning katta kichikligi hisobga olinib haykaltarosh bilan natyurmort oralig'i to'g'ri tanlanishi, tanlangan variant chizib olingan ichki ramkaga joylanishi lozim. Agar o'lchamlarni kerakli nisbatta olinadigan bo'lsa, ichki ramkada shu nisbat saqlanishi kerak. Qog'oz varag'iga natyurmortni to'g'ri kompanovka qilishda shablon ramkadan foydalanilsa bo'ladi. Buning uchun qog'oz varag'i o'lchami nisbatlarini saqlagan holda kichik (ko'pincha taxminan konvert yoki gugurt qo'tisi o'lchamlariga o'xshash) karton qog'ozga o'lcham moduli yasab olinadi. Bu modulda ichki ramka o'rniga teshik ochiladi. Bu shablon ramkani ko'zga yaqinlashtira borib kompanovkani tez va soz topish mumkin. Shablon ramka tabiatga qarab kompozitsiya izlashda ham qo'l keladi. Proporsiya deganda – natyurmort elementlari o'lchamlarining bir biriga nisbati tushuniladi. Bunda faqat bitta element o'lchamlari nisbati tushunilmasdan umuman chizish kerak bo'lgan naturalar o'lchamlari (bo'yi, eni, balandligi) ning bir biriga va boshqalarga nisbati tushunilishi kerak. Qog'ozda natyurmort kompanovkasi topilib, uzun uzun to'g'ri chiziqlar bilab semmetriya o'qlari buyumlarning bir biriga nisbatan joylashishi chizgi tarzida chizilgach qalam yordamida homaki rasm (chizgi) tekshirib chiqiladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi: 1-usul: chizayotgan joydan jilmasdan natura o'lchamlari bilan qog'ozga chizilishi kerak bo'lgan rasm solishtirilib, taxminiy masshtab aniqlanadi. Ya'ni natura o'lchamlari qo'lda ushlangan qalam bilan bosh barmoq yordamida o'lchanadi. O'lchash qo'lni tirsakdan egmasdan to'g'ri naturaga yo'naltirilgan holda bajariladi. Bu o'lcham ichki ramka foydali maydoniga sig'adigan qilib bir necha marta (misol uchun 2 yoki 2,5 marta) kattalashtirilib chiziladi va shu kattalashtirilgan o'lcham boshqa hamma o'lchamlar uchun masshtab bo'lib xizmat qiladi. Natura eni misol uchun ikkiyarim marta kattalashtiriladi. Bu taxminiy masshtabni chizmachilikdagi masshtablar bilan aniq o'lchamlar bilan chalkashtirmaslik kerak. 2-usul; natyurmort elementlari o'lchamlaridan kichigini qalamni qo'lni egmasdan tutgan holda o'lchab kattaroq shu o'lchamdan necha

marta kattaligi aniqlanadi. Rasmda ham shu apiratsiya takrorlanadi, yani homaki rasm tekshiriladi, to'g'irlab boriladi.

Qisqacha qilib aytganda, birinchi usulda natura o'lchanib qog'ozga ko'chirib borilsa ikkinchi usulda avval naturaning bir o'lchami olinib ikkinchisi bilan solishtirilib, keyinchalik rasmdagi shu o'lchamlarga tadbiq qilinadi.

Agar natyurmort elementlarida tik, yotiq turgan yoki og'ma to'g'ri chiziqlar uchrasa atrofdagi shunday chiziqlar (ramka, eshik, devor raxlari) bilan qalam yordamida solishtirilib boriladi. Egri chiziqlarni chizganda ham ularni birdan egri qilmasdan, avaliga to'g'ri chiziqlarni yig'indisi deb olinib, keyinchalik kerakli shaklga yaqinlashtirilib borilishi lozim.

Shunday qilib proporsiya jihatdan ancha to'g'ri chizgi hosil qilindi. Lekin hali tekshirish tugaganicha yo'q, tekshirish va xato kamchiliklarni bartaraf qilib borish mantiqan rasm tugagunga qadar davom etadi. Chizilayotgan rasmdagi natura tuzilishini ko'z oldiga keltirmasdan turib (chizqichalar bilan ishlashni) rasimni chizishga kirishmaslik lozim naturalar shakli to'g'ri chiziqli tekisliklar va geometrik jismlar yig'indisi deb tushinilib, ularning ko'rinmas qirralari, konturlari ham yengil chiziqlar bilan chizib olinadi. Bularni tasavvur qilish uchun naturalarni turib, atrofini aylanib ko'rish, ularni har tomonlama kuzatish kerak bo'ladi.

Naturalarni ko'z o'ngida turganidek rasmda ham konstruktiv to'g'ri yechilgan bo'lishi kerak, shundagina bu naturalar rasmda ham o'z o'rnida turishi to'g'ri va haqqoniy chiqishi mumkin. Mutanosibliklar (proporsiya)ni tekshirilgandagi usul rasmda natura tuzilishini tekshirishda ham qo'llaniladi bunda albatda perspektiv qisqarishlar ham hisobga olinish kerak.

Perspektiva deb natura o'lchamlarining kuzatuvchida uzoqlashgan sari kichiklashib, qisqarib borishiga aytiladi. Geometriyadan parallel chiziqlarning uchrashmasligi ma'lum lekin ular hayotda kuzatilganda albatta ufq chizig'idagi bir nuqtaga intiladi. Ufq chizig'i bu ko'zlarimiz turgan balandlikdan o'tuvchi yer sathiga parallel bo'lgan ufq tekisligiga yotgan chiziqdir. Inson harakatda bo'lgani uchun ufq chizig'i ham o'zgarib turadi. Shuning uchun turganda stol usti yerga

o'tirganda esa uning ostki qismi lekin xontaxtaning ustki qismi ko'rinadi, chunki xontaxta balandligi hali ufq chizig'idan pastda bo'ladi. Yotgandagina esa uning ustki qismi ko'rinmaydi. Yana bir narsani unutmaslik lozim, naturalardan uzoqlashgan sayin ular shakllari, qirralari, soyalarning ko'rinishi oldindan turganlariga nisbatan kuchsizlanib yoki tumanlashib boradi. Kompanovka mutanosiblik, tuzilish, perspektiva kabi termenlar ma'nosini yaxshi tushunib qo'llay olgandan keyin yorug' soya hodisalarini tasvirlashni chuqurroq uzlashtirishga kirishish kerak. Naturaga qarab rasm chizish asosan yoritilganlik yarimsoya soyalarni to'g'ri tasvirlash ya'ni chiziqchalar orqali yorug' soyani tasvirlash bilan tugallanadi. Rasmda yorug' soyaning bir xil rangda tasvirlash yorug' soyaning ton orqali ifodalashdan iborat bo'lib, rasmning tonallagi darajasini belgilaydi. Rasmning toni naturaning yoritilganligi natijasida uning sirtining shakli soyalari qismlarining oldinda yoki orqada turganligi ya'ni chuqurliklarini turli chiziqlar yordamida ifodalashga xizmat qiladi. Geometriya tili bilan aytganda ikki o'lchamga ega bo'lgan qog'ozda uch o'lchamli hajmga ega naturalarni xuddi oynadan ko'ringandek qilib tasvirlashda tonning roli beqiyosdir.

To'g'ri va yaxshi yoritilish natijasida naturalarning sirti qanday tuzilishga ega ekanligini, ranglarini, materialini va har bir qismining qaysi rejada turganligini tezda ilg'ash mumkin. Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganidek naturalarning to'g'ri yoritilganligini ta'minlash kerak. Markaziy yoritilish manbaidan foydalanilsa soya va natura chegaralari bitta chiziqdan iborat bo'lib, chizish osonlashadi.

Birinchi bor chizayotganlar ya'ni bir narsa esadan chiqarmasliklari kerak ya'ni naturalar oq rangda (gipsdan bo'lsa yana ham yaxshi) bo'lsa yoritilganlik va soya almashinishining izchilligini ajratish uncha qiyin bo'lmaydi. Turli xil ranglardan iborat murakkab naturalar nafaqat boshlovchilarni balki ancha qo'li kelishib qolgan chizuvchilarni ham shoshirib ko'zini aldashi turgan gap. Bunday murakkab kompozitsiyalarning chizishni bir rangdan ikkinchi ranga o'tish izchilligini yaxshi bilgan shoshilmasdan bosqichma – bosqich adashmasdan ish tutgan yoritilish va

soya qoidalarini yaxshi o'rgangan rasm chizuvchigina uddalay oladi. Naturalarning yorug'lik manbaiga qarab turgan tomoni yoritilgan qismi yorug'lik manbaiga qarama – qarshi tomon albatta soya bo'ladi. Soyalar ikki xil: ya'ni naturalarning o'z soyasi va tushgan soyasi bo'ladi. O'z soyasi naturaning yorug'lik manbaiga qarshi turgan tomonida hosil bo'lsa shu soyaning konturi boshqa buyumga yoki yerga tushib hosil qilgan soya tushuvchi soya hisoblanadi. Naturalar materialiga bog'liq holda tushuvchi soya o'z soyasiga qaraganda ko'pincha kuchliroq (qoraroq) bo'ladi. E'tibor qilingan bo'linsa, natura yuzasi qancha yaltiroq bo'lsa yoritilgan qismida ham nisbatan yorug' bo'lgan joylar bo'ladi. Bu kuchli yorug' joy nurning kuzatuvchiga natura yuzasidan qaytgan joyi ya'ni yorug'lik shu'lasidan boshqa buyum yuzalaridan yorug'likning naturalar soya qismiga qaytib oqargan joyi refleks deb ataladi.

Shunday qilib rasmni boshlashdan tugallaguncha bo'lgan jarayon ko'rib chiqildi. Bu jarayonda uchraydigan asosiy tushuncha va qoidalarni qisqacha eslatib o'tildi. Bularni amalda qo'llash oson bo'lishi uchun shu tartibda saqlagan holda aniq bosqichlarga bo'lib chiqish mumkin. Qog'ozga kompanovka qilish. 1-bosqich: mutanosiblik va perspektiv qisqarish hisobga olingan natura tuzilishi - 2-bosqich: yoritilganlik va soya chegaralarini mutanosiblik qoidalari asosida topib yengil chiziq berish- 3-bosqich: naturalar detallariga ishlov berish - 4-bosqich: detallarning umumiy tonga buysundirilishi umumlashtirish va tugallash - 5-bosqich: bo'ladi. Naturaga qarab rasm chizishda bosqichma – bosqich chizishga odatlanish kerak. Oddiy natyurmortlarni chizishdan boshlab bosqichma - bosqich chizishga o'rganilsa ancha qiyin va murakkab naturalardan (dropirovka, odam, hayvonlar, tabiat manzarasi) tashkil topgan kompazitsiyalarni chizish ham qiyin bo'lmaydi. Bosqicha – bosqich ishlashda avval umumiydan detallarga va keyin detallarda umumiyga degan rasmchilikning asosiy qoidasiga amal qilish hamma vaqt qayta – qayta chizishga to'g'ri kelsa ham boshlangan rasmni tugallashga erishish zarur. Qalamtasvirda partret ishlash, natyurmort ishlashdan ancha murakkab ish bo'lib

unda ilmiy bilimlar ko'nikma va malakalar yuqori saviyada egallangan bo'lishi kerak.

2.3. Me'morchilik binolarining ichki va tashqi qismlarini rel'ef turlari bilan bezatilish usillari.

San'at xususan haykaltaroshlik, istiqlool davrida mafkuraviy – g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot – targ'ibot vositalarga o'xshab tezkorlik bilan javob bera olmasada, 1990 yillarning ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqib, quyidagicha davom etdi.

Haykaltaroshlikning ijodiy uslublari 70 – 80 yillar an'alaridan keskin farqlanmay tursa ham, 1990 yillarda yaratilgan asarlarida yangi g'oyaviy mafkuraviy muhit ta'siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustivorligi o'z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi. O'zbek xalqining tarixini va madaniy merosini haykaltaroshlar chuqur o'rganib, badiiy jarayonida ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida Chirchiq shahrining markaziy shox ko'chasida va poytaxtimizning Milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorliklarni qayd etish joizdir.

Bu ikki yodgorlik badiiy sifat va xususiyatlari jihatidan barobar emas. Chirchiq shahridagi Navoiy haykalining (A.Rahmatullayev, L.Ryabsev, 1991 y) kompozitsion yechimi va plastik shakllari mualliflarning katta tajribaga, kasbkorlik mahoratiga ega ekanliklarini yaqqol ko'rsatib turibdi. Shoirning ruhiy holati, his – tuyg'ulari ravshan, ishonarli ifodalangan, lekin, tik turgan holati ovrupacha uslubiylilik doirasida yaratilganligi bilan sharq an'alarini hisobga olinmaganligi asarni shartli ravishda salbiy tomonlarini belgilaydi. Milliy bog'ning eng sulim go'shasidan o'rin olgan Alisher Navoiy yodgorligida (E.Aliyev, N.Bandeladze, V.Degtyarov, 1991 y.) esa, sharqona yaratilganligi bilan ijobiy farqlanadi. U bog'ning eng baland qismiga joylashtirilgan bo'lib, uning atrofini milliy uslubda barpo qilingan qovurg'asimon gumbazli ayvoncha va ko'kalamzor bog' urab

turadi. Bronzadan yasalgan haykalda fozillik alomatlari o'z ifodasini topgan. Ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy unsure esa, shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlantiradi. Haykal ishlanish uslubiga ko'ra, umumlashma tarzida amalga oshirilgan. Ya'ni mayda detallar o'rnini umumiy yaxlitlik qabrab olgan. Haykaldagi mayda detallar faqat ko'krakda tepa qismida, liboslar harakatida va yuz qiyofasida qo'llanilgan. Shoirning o'ng qulida hasa bilan tasvirlanishi dinamik harakatni yuzaga keltirgan. Birgina ushbu detal orqali haykaltaroshlar obrazdagi turli ma'nolarni ochib berishga harakat qilganlar. Bu ma'nolarning ayrimi uzoq masofaga tegishli bo'lib, keksalik alomatiga ifodaviy vositadir. Tomoshabin uzoq masofadan turib, shoirdagi keksalik alomatini hasa vositasi orqali idrok etadi. Haykalga yaqinlashgan sari, hassadagi bu xususiyatlar ikkinchi darajali bo'lib, yuqoridagi ma'nolarning faolligi yuz qismiga almashadi.

Navoiy o'brazi yaratish yurtimizning ko'plab haykaltaroshlarini qiziqtirib kelgan. Bugungi kunda ham Navoiy o'braziga murojat etish haykaltaroshlik san'atida to'xtaganicha yo'q. 2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A. Raxmatullayev va P. Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metrli haykalning o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Haykaltaroshlikning munosabatli turida sermahsul ijod qilayotgan ijodkorlar orasida akademik, O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ilhom Jabborov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,

Adabiyotlar ro'yxati

1. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviya yengilmas kuch” T-2008 y. Ma’naviyat nashriyoti.
2. I. A. Karimov “O’zbekiston milly istiqlof, iqtisodiyot, siyosat, mavkura” O’zbekiston 1996 y
3. Ahmedov N.K. “Odam anatomiyasi” Atlas. Toshkent, 1996.
4. Boymetov B.B. Haykaltaroshlik. Kasb hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma. Toshkent, 2005
5. YO. Barchai. “Anatomiya dlya hudojnikov” Budapesht. 1981
6. M. Nabiyeu “Rangshunoslik” T. O’qituvchi 1995 y
7. N. Oydiyov “Rassom-o’qituvchilar tayyorlash muammolari” T. O’qituvchi 1997 y
8. B. Oripov “Tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish omillari” T. O’qituvchi 1978 y
9. N. U. Abdullayev San’at tarixi O’qituvchi 1986 y
10. N. Oydiyov O’zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar T.O’qituvchi 1997 y
11. R. Xasanov “Maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasi” T. Fan. 2004 y
12. S.S.Bo’latov “Rangshunoslik” O’zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti T. 2009 y
13. Ch. Axmarov. G’.G’ulom nomidagi adabiyot nashriyoti 1979 y
14. B. Boymetov “Qalam tasvir” Musiqa nashriyoti T. 2006 y
15. X. Karimov, O’. Tansiqboyev T. Yosh gvardiya 1978 y
16. B. Boymetov. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san’at to’garagi T. 1995 y

17. S. Uralov “Mo’jiza yaratish san’ati” T. Mehnat 1996 y
18. R. Xasanov “Tasviriy san’at asoslari” G’.G’ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi T. 2009 y
19. S.S.Bo’latov “G’o’zallik falsafasi” T. 2008 y
- 20.S.S. Bo’latov “Yoshlarga hunar o’rgatishning milliy an’anaviy asoslari” metodik tavsiya T.RUMM.1993y

Xulosa

Tasviriy san'atning haykaltaroshlik turida ham xuddi tasviriy faoliyatning boshqa turlar kabi janrlarning hammasida ijod qilish mumkin. Masalan: portret, manzara, natyurmort va boshqa ko'rinishlarda. Haykaltaroshlik asarlari rangtasvir, qalamtasvir va amaliy san'atdan farqli o'laroq hajmli ko'rinishdagi tasvirlarni bajarishga yonaltirilgan san'at turi hisoblanadi.

Bitiruv ishning yozma sahfalari va amaliy qismida ana ma'lumotlarni keltirib ko'rgazma vosita sifatida vazadagi gullar natyurmortini bo'rtma haykaltaroshlik turida yasab ko'rastib berildi. Misol tariqasida haykaltaroshlik san'atining ish jaraoyonini tahlil qiladigan bo'lsak, albatta murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. Bunda barcha ijodiy ishlar o'yib, quyib yasash orqali amalga oshiriladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarab, kichik hajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik hajmdagi asarni loydan tayyorlaydi. (aylanadigan dastgoh ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, taxtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va shakl hosil qiladi). Bu shakldan 2 yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi.

Tosh haykal ishlanayotganda anashu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nusxasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, o'zoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan maxsus korhonalarda amalga oshiriladi.

Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin. Malakaviy bitiruv ishidan ko'zlangan maqsad, mavzuga doir muommolarni ochib berish edi, bajargan ishimda mana vazifalarni yorib berdim deb o'ylayman.

